



BUXORO AMIRLIGINING KUNDALIGI


Sultonova Kumush Qayum qizi

Buxoro davlat universiteti 2 bosqich magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Buxoro amirligining kundaligi mavzusida fikr va mulohazalar yuritiladi. O'zbek davlatchiligi tarixini ilmiy tadqiq etish, unga haqqoniy baho berish va to'plangan tajribadan ijodiy foydalanish mustaqil O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy - siyosiy va madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun XX asrning oxiriga kelib jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lgan O'zbekiston tarixini, xususan o'zbek davlatchiligi tarixini har tomonlama o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu bois ham, so'nggi yillarda O'zbekiston tarixining qator dolzarb masalalarini o'rganishda aniq va haqqoniy tarixiy yondashuv masalasi muhim bo'lib bormoqda

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, xonliklar, siyosiy taraqqiyot, ijtimoiy holat, savdogarlik, savdo aloqalari, o'zaro munosabat.

Ta'kidlash joizki, o'zbek xonliklaridan biri bo'lgan Buxoro xonligi O'rta Osiyo tarixi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti va xalqaro munosabatlarida katta iz qoldirgan davlat bo'lib, uning har bir hukmdori yuritgan ichki va tashqi siyosat hamda uning oqibatlarini o'rganish alohida ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo qiladi. Amirlik haqidagi ayrim ma'lumotlarni (jumladan, XVIII asrda O'rta Osiyoning qo'shni Sharq davlatlari bilan aloqalarini) o'rganishda rus manbalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ularda iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni tahlil qilish, savdo yo'llarini o'rganish uchun qilingan harakatlar, hamda qaysi mamlakatdan qanday mollar qancha miqdorda keltirilganligi haqidagi ma'lumotlar



batafsil berilgan. Rus manbalarida rus elchi va elchiliklarining hisobotlari, Buxoro, Xiva va Hind elchilari hamda savdogarlarining so'rov ma'lumotlari keltirilgan. Shuningdek, hukmdorlar hamda xonlarning bir-birlariga tortiqlari, sovg'alari haqida ham ma'lumotlar keltiriladi.

Ana shu ma'lumotlar orqali O'rta Osiyo xonliklarining Hindiston va Rossiya o'rtasidagi savdodagi tutgan o'rnini bilib olish mumkin. Xususan A.Jenkinson Buxoro bozorlaridagi hind savdogarlarining faoliyati haqida, "ular Buxoroga na oltin, na kumush, na qimmatbaho toshlar, na ziravorlar keltiradi. Men, Hindistondagi bu tovarlar ishlab chiqariladigan eksport tovarlar portugallar qo'l ostida bo'lganligi uchun, bu tovarlar bilan savdo okean orqali olib borilishini aniqladim", deb yozgan ma'lumotlarida elchining hind savdogarlariga o'z munosabatini bildirganligini ko'rishimiz mumkin.

Muallif Buxoroni Osiyoning yirik savdo markazi ekanligini ta'kidlaydi. U buxoroliklarning mamlakat ichki savdosida faol qatnashishini, u yerda ko'plab savdo rastalari va karvon-saroylari mavjudligini eslatib o'tadi. Yefremovning tassurotlari Buxoro xonligi tashqi savdosining taraqqiyot darajasini belgilashga yordam beradi.

Ma'lumotlarga boy va shu bilan birga Buxoroning kelajagi haqidagi Yefremovning asari XVIII asrdagi Yevropa fani uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Bizni qiziqtirgan masala bo'yicha muhim ma'lumotlar rus sayyohi va ofitseri T.S.Burnashev asarida uchraydi. U Rus hukumatining topshirig'iga ko'ra, 1794 yili Buxoroda bo'lgan edi. U Buxoroda bo'lgan vaqtida u yerga savdo qilish uchun Afg'oniston, Eron, Hindiston va boshqa yurtlardan kelgan turli millat vakillarini ko'rgan. Burnashev Buxoroda joylashgan bozorlar to'g'risida yozib qoldirgan. Agarda Yefremovning sayohati davrida Buxoroda 4 ta g'isht karvon-saroy bo'lgan bo'lsa, Burnashev davrida ularning soni 9 ta bo'lgan.




Karvon-saroylar sonining ortib borishiga e'tiborni qaratsak, Buxoroning tashqi iqtisodiy aloqalarining o'sib borganligi to'g'risidagi taasurotga ega bo'lamiz.

Burnashevning ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro Hindiston va Erondan tillo, kumush va hind malmali olgan. Buxoro Eronga qorako'l terisi va boshqa tovarlar eksport qilgan. Burnashev Buxoroga keltiriladigan chet el tovarlaridan qirqdan bir miqdorida boj solig'i olinishini eslatib o'tadi. Rus savdogarlari esa o'z mablag'idan yigirmadan bir miqdorida soliq to'lagan.

XIX asrda Buxoro davlatchiligi tarixi mag'itlarining navbatdagi hukmdori Amir Haydar (1800-1825) podshohlighi bilan boshlandi. U o'z sulolasidan bo'lgan boshqa tojdorlarga nisbatan ko'p jihatlari bilan o'zbek milliy davlatchiligi tarixida sezilarli iz qoldirgan, mang'itlar hukmronligini mustahkamlash, ichki va tashqi muxoliflarga qarshi kurashda qator muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishga erishgan. Bu hol, ayniqsa, uning tashqi siyosatida o'z davridagi g'oyat murakkab xalqaro munosabatlarni to'g'ri ilg'ab ola bilishida yorqin namoyon bo'ldi. Amir Haydar hukmronligining dastlabki o'n yili ichida Buxoro davlati olib borgan tashqi siyosiy diplomatik munosabatlarning ayrim qirralari haqida haqqoniy va yangi ma'lumotlar beruvchi safarnomalar bugungi kunda davlatchilik tarixi masalalarini yanada chuqurroq tadqiq etishga imkon tug'diradi.

Bundan tashqari, Buxoro amirligining qo'shni Sharq davlatlari bilan savdo munosabatlarini o'rganish, hamda rus-buxoro savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniyatlarini topish vazifasi ham o'rin olgan edi. F.Beneveni ham o'z tadqiqotlarida Buxoroning Eron bilan aloqasiga doir ma'lumotlarni berar ekan, u 1722 yil ko'p savdo karvonlari Mashhaddan Buxoroga, Hirot va Isfahonga jo'natilganligi, lekin ularning bari turkmanlar yoki afg'onlar tomonidan talanganligini, oqibatda Balx orqali bo'ladigan savdo to'xtab qolganligi, to'rtinchi yil Kobul, Laxor va Hindiston shaharlariga karvonlar qatnamay qo'yganligini yozadi.



F.Beneveni o'zining xizmatkori Minerni oltin va kumush konlarining joylashgan joyini topish va aniqlash maqsadida savdogar qiyofasida Balx va Badaxshonga jo'natadi.

Uning xabariga ko'ra, u yerda ko'proq buxoro tovarlari sotilib, savdogarlar bu tovarlar uchun Badaxshon aholisidan tillo va kumush quymalari ko'rinishida haq olganlar. F.Beneveni xizmatkori Minerni Balx va Badaxshon bozorlaridagi rus tovarlari hayron qoldirgan: ular nina, oyna, qaychi, munchoqlar, suvsar, qunduz, los mo'ynalari va terisi, yashil, qizil va to'q zangori movutlar edi. Uning yozishicha, Badaxshondan Balx orqali Mashhadga oltin va kumush ortilgan karvonlar bir yilda 2, 3 va hatto 4 marta borgan. Xurosonda bular oltin va kumush tangalarga aylantirilib, unga O'rta Osiyo uchun Eron mollari sotib olingan.

Xulosa: XVIII asrning birinchi yarmida Rossiyaning O'rta Osiyo bilan savdo aloqalari kengaya boradi. Rus savdosini O'rta Osiyo xonliklari tovarlari bilan yanada ko'proq hamda keyinchalik Turkiston va Qozoq dashti ustidan nazorat o'rnatish maqsadida Orenburg shahrining qurilishi boshlab yuboriladi. N.I.Neplyuyev, P.I.Richkov va K.M.Tevkelev rahbarligida Hindiston bilan savdoni yo'lga qo'yish maqsadida maxsus kompaniya tashkil qilinadi. Orenburg ekspeditsiyasi rahbari, mashhur rus geografi I.Kirilov Buxoroni Osiyoning savdo markazi sifatidagi ahamiyatiga yuqori baho berib, uning qo'shni Sharq davlatlari bilan aloqalardagi rolini ta'kidlab o'tgan edi.

1735 yil Kirilovning so'roviga binoan Astraxandan Ufaga hind savdogari Maravgi Barayev taklif qilingan. Savdogar Hindistondan O'rta Osiyo xonliklari orqali Astraxanga boradigan yo'l haqida ma'lumot bergan. Uning aytishicha, yaqin vaqtlargacha Eron va Buxoro orqali Rossiyaga 200 savdogar kelib savdo qilishar edi. Biroq keyingi paytlardagi Erondagi qaltis vaziyat va Buxoro yo'lida savdo agarda yo'llarda xavf-xatar bo'lmaganda edi, Hindistondan Buxoro orqali Rossiyaga keluvchi savdogarlarning soni 600 kishiga yetgan bo'lishi mumkin edi, deb taxmin qilgan. Mashhur rus geografi P.I.Richkov Buxoroning Hindiston bilan savdo aloqasida Orenburgning ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tadi. U, butun



Sharqiy Hindistonda yashayotgan xalqlar rus va boshqa g'arb tovarlarini faqat Orenburg va Buxoro orqaligina to'g'ridan-to'g'ri va arzon narxda bu qadar ko'p miqdorda va arzon narxda sotib olishi mumkin, deb ta'kidlagan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. TOJIYEV, B. T. (2021). XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ICHKI VA TASHQI SAVDO. In Uzbek Conference Publishing Hub (Vol. 1, No. 01, pp. 469-473).
2. Asilbekov, D., & Abduhamidov, J. (2020). BUXORO AMIRLIGI MADANIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Academic research in educational sciences, (3).
3. Qurbonov, D. N. (2020). ORTA OSIYO XONLIKLARIDA KUTUBXONALAR FAOLIYATI. In ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 47-50).
4. Zaripov, J. G., & Akhmadjon, A. A. (2020). THE ROLE OF AFGHANISTAN IN DIPLOMACY OF BUKHARA EMIRATE (XVIII-XIX CENTURIES). Scientific reports of Bukhara State University, 3(2), 226-230.
5. Bekmurodovna, G. T. (2020, November). ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO 'CHIRISH SIYOSATI.(XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASRNING BOSHLARI). In Archive of Conferences (Vol. 9, No. 1, pp. 198-200).
6. Yoldashev, U., & Chinibayev, O. (2020). ON THE PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF HIGHER HISTORICAL EDUCATION. Academic research in educational sciences, (3).